

DEHQON XO‘JALIKLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI



Samiyeva Gulnoza Toxirovna
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası
dotsenti v.b., i.f.f.d. (PhD)
E-mail: g_samiyeva@inbox.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada dehqon xo‘jaliklarining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida dehqon xo‘jaliklarining hosildorligi va diversifikatsiyasi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: dehqon xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, diversifikatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется роль дехканских хозяйств, которые помогают обеспечению продовольственной безопасности и удовлетворению потребности населения сельскохозяйственной продукции. Также в статье рассматривается производительность и диверсификация со стороны дехканских хозяйств для поддержки продовольственного обеспечения.

Ключевые слова: дехканские хозяйства, производство сельхоз-продукции, обеспечение продовольственной безопасности, диверсификация.

Abstract. This article analyzes the role of dekhkan farms that help ensure food security and meet the needs of the population for agricultural products. The article also examines productivity and diversification on the part of dekhkan farms to support food security.

Key words: dekhkan farms, agricultural production, food security, diversification.

Kirish

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishda dehqon xo‘jaliklari o‘rnining yuqoriligi mazkur yo‘nalishlarda ilmiy-amaliy muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu eng avvalo, ularning aholini bandligini ta‘minlash hamda turmush farovonligini oshirish kabi ijtimoiy masalalarda qo‘shayotgan hissasining oshib borayotganligi bilan bog‘liqdir. Shu bois, bozor munosabatlariga tez moslashuvchan xo‘jalik yurituvchi subyekti sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotiga tobora katta ahamiyat kasb qilayotgan dehqon xo‘jaligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uni rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qilish zaruriyati vujudga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktabrdagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5199-son farmoni, 2017 yil 10 oktabrdagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3318-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 martdagi “Dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvga chidamli, eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-119-son qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa huquqiy-meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida

ushbu mavzu nazariy tadqiq etilgan.

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va ko‘paytirish orqali dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa dehqon xo‘jaliklarining rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash; dehqon xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish darajasining hozirgi holatini tahlil qilish natijasida ularning samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

F.A.Brokgauz va I.A.Yefronlar muallifidagi ensiklopedik lug‘atda “Dehqon xo‘jaliklari – iqtisodiy kategoriya sifatida oila rahbari va uning a‘zolari mehnatiga tayangan mayda tovar ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jaligi korxonasidir” [1]. Yana bir ensiklopediyada “dehqon xo‘jaligi shunday qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish shaklidirki, u asosan umrbod meros qoldirilgan yoki uzoq vaqt foydalanish uchun ijaraga olingan yerda oila a‘zolarining birgalikdagi mehnatiga asoslanadi” [2] deyilgan.

A.Bobok dehqon xo‘jaliklarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatiga baho berib, “aholi tomorqa xo‘jaliklari hozirgi kundagi bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlovchi va shuning ortidan aholi daromadlarini oshiruvchi asosiy manbadir, shuningdek, o‘lkada ishsizlikning o‘sishi xavf solib turgan davrda ish o‘rinlari taklif etayotgan alohida xo‘jalik yurituvchi mahalliy qishloq xo‘jalik shaklidir” [3], deya alohida ta‘rif bergan.

Hozirgi kunda dehqon xo‘jaliklarini asosan oila xo‘jaliklari bilan uyg‘un tarzda e‘tirof etishadi. Chunonchi, oila xo‘jaliklarining qo‘shimcha daromad topishi uchun dehqon xo‘jaligini yuritish muhim omil bo‘lmoqda. Bunday tadbir jamoa ishlab chiqarishidan yoki boshqa manbalardan olinayotgan daromadi juda kam bo‘lgan oilalar uchun ayniqsa muhimdir. Demak, dehqon xo‘jaliklari jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oilaga taalluqlidir. Oilada esa bozor iqtisodiyotiga mos “moddiy manfaatdorlik”, “chinakam mulkka egalik hissi” tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, I.Kapanev va G.Chubkovlar ushbu manfaatdorlikni dehqon xo‘jaliklariga tegishli bo‘lgan tomorqa uchastkalari bilan bog‘lagan holda “fuqarolarning tomorqa xo‘jaliklari ularning egalarini va butun jamiyatning iqtisodiy manfaatlarini qondiruvchi manba” [4] ekanligini e‘tirof etadi. Darhaqiqat, dehqon xo‘jaligi oila boshlig‘i ixtiyoridagi yer uchastkasida oila a‘zolari mehnati yordamida qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaradi va bu dehqon xo‘jaliklarini uy xo‘jaliklarining tarkibiy qismi ekanini ko‘rsatadi. Zero, ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida uy xo‘jaligining mohiyati, uning faoliyat yuritish funksiyalari va vazifalari bo‘yicha ilmiy-metodologik muammolar asosan chet el olimlari tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, bizningcha, respublikamizda ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan U.Ahmedovni ilmiy tadqiqot natijalari e‘tiborga molik sanaladi.

Olim “uy xo‘jaligi” atamasi va “oila” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi va uning funksional farqlari bo‘yicha fikr-mulohazalar yuritib, dehqon xo‘jaliklarini uy xo‘jaligi tarkibida faoliyat yurituvchi subekt sifatida qaraydi va ularni uch toifaga ajratadi. Ya‘ni, “1) faqat o‘z oilasi iste‘moli uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi xo‘jalik; 2) ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini oila iste‘molidan ortiq qismini bozorda sotuvchi xo‘jaliklar; 3) ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini asosan bozorda sotuvchi tovar xo‘jaliklari” [5]. Yana bir guruh olimlar: “Dehqon xo‘jaligining asosiy vazifasi – qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hamda shu asosda eng kam sarf-xarajat birligi evaziga mahsulot

yetishtirishni har tomonlama ko‘paytirishdan iborat. Shuningdek, yer resurslaridan unumli foydalanish, mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga hissa qo‘shish, o‘zi joylashgan hududning ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlashda ishtirok etish kabi bir qator vazifalarni yechishda ham dehqon xo‘jaliklari o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim” [6], deb ta‘kidlaydilar.

Bizning fikrimizcha esa, dehqon xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan oila xo‘jaligi bo‘lib, bunda oila a‘zolarining birgalikdagi mehnati ta‘minlanadi hamda aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabi qondiriladi. Tomorqa xo‘jaligi esa, uy xo‘jaligiga oid hisoblangan yer maydonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tovar sifatida kelgusida sotish yoki shaxsiy iste‘mol uchun yetishtirishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Dehqon xo‘jaligi oilaviy tadbirkorlik uchun sharoit yaratilganligining muhim belgisidir. Zero oilaviy tadbirkorlik oila a‘zolarining birgalikdagi shaxsiy mehnatiga asoslangan harakatdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, monografik kuzatuv, statistik guruhlash, so‘rovnoma, matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan. Ushbu tadqiqot ma‘lumotlari rasmiy manbalardan olinib, taniqli iqtisodchi olimlarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, xorij tajribalarini umumlashtirish, monografik tadqiqotlar va so‘rovnomalar o‘tkazish bo‘yicha olingan natijalarga tayangan holda dehqon xo‘jaliklarini chuqur o‘rganishga erishildi.

Tahlil va natijalar

Dehqon xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan oila xo‘jaligi bo‘lib, bunda oila a‘zolarining birgalikdagi mehnati ta‘minlanadi hamda aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabi qondiriladi. Tomorqa xo‘jaligi esa, uy xo‘jaligiga oid hisoblangan yer maydonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tovar sifatida kelgusida sotish yoki shaxsiy iste‘mol uchun yetishtirishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Dehqon xo‘jaligi oilaviy tadbirkorlik uchun sharoit yaratilganligining muhim belgisidir. Zero oilaviy tadbirkorlik oila a‘zolarining birgalikdagi shaxsiy mehnatiga asoslangan harakatdir.

Qayd etish lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish jamiyatning modernizatsiyalashuvi, demokratik jarayonlarning rivojlanishi va ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligi va unda olib borilayotgan islohotlar samarasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, respublikamiz agrar sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, yangi xo‘jalik yuritish shakllariga o‘tish va uni qo‘llab-quvvatlash asosida qishloq aholisining turmush tarzini yaxshilash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Dehqon xo‘jaligi erkin, mustaqil tadbirkorlik subektidir. Iqtisodiyotning turli sohalarida band bo‘lganlar uchun shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar bo‘sh vaqtda mehnat resurslaridan samarali foydalanish vazifasini bajarganlar. Dehqon xo‘jaligi nafaqat ishdan bo‘sh vaqtdan samarali foydanish, balki bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishni ham ko‘zlaydi. Bugungi kunda dehqon xo‘jaligi o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra iqtisodiy faoliyatning asosiy subektlaridan biri hisoblangan – uy xo‘jaligi va firmaning ayrim jihatlarini o‘zida namoyish qiladi va aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Dehqon xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirishni rag‘batlantirish quyidagi ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi:


- mehnatga yaroqli aholining ish bilan band bo‘lmagan ortiqcha qismini, asosan qishloq joylarda yashovchi xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga hamda shu tariqa ihsizlikning kuchayib borish xavfini barham toptirishga erishiladi;
- aholining real daromadlarini oshirishga, shuningdek, qishloq aholisi uchun ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlashga erishiladi;
- aholini hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashdagi keskinlikka barham berishga muvaffaq bo‘linadi. Yer uchastkalari olgan oilalar kartoshka, sabzavot, meva, chorvachilik mahsulotiga bo‘lgan o‘z ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki ularni tuman markazlari yoki shaharlardagi dehqon bozorlarida sotishni ancha ko‘paytirib, oziq-ovqat muammosini hal qilishga ulushini oshiradi;
- yakka tartibdagi uy-joy qurilishi ko‘lamini ancha kengaytirishga muvaffaq bo‘linadiki, bu hol aholini uy-joy bilan ta‘minlash, respublika aholisining kommunal (maishiy) va uy-joy sharoitlarini yaxshilash sohasidagi anchagina muammolarni hal qilishga yordam beradi;
- faqat ijtimoiy nizolarning sababi va manbalarini bartaraf etish hisobigagina emas, balki kishilarning shaxsiy tomorqa yerlarini va bog‘, dala hovli yerlarini obodonlashtirishda faol qatnashadi.

Tahlillarga ko‘ra, o‘tgan yillar mobaynida o‘tkazilgan davlatimizning siyosati, aynan dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar natijasida respublikamiz bo‘yicha 2020 yilda 2000 yilga nisbatan dehqon xo‘jaliklari soni 3243,6 ming tadan 5189 ming taga, ya‘ni ushbu yillarga nisbatan 59 foizga, ekin maydoni esa 401,5 ming gektardan 496,1 ming gektarga, ya‘ni 23,6 foizga oshgan. Dehqon xo‘jaliklari soniga mos ravishda to‘g‘ri keladigan ekin maydoni ulushi 2000 yilda o‘rtacha 0,12 gektarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 yil ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 0,10 gektarga kamaygan.

Monografik tadqiqotlar olib borilgan Qashqadaryo viloyatida 2000 yilda 319,6 ming ta dehqon xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2020 yilda 53,2 foizga oshgan. Dehqon xo‘jaliklariga tegishli bo‘lgan ekin maydonlari esa ushbu yillar mos ravishda 69,2 ming gektardan 70,8 ming gektarga oshgan, xolos. Monografik tadqiqotlar olib borilgan Qashqadaryo viloyatida ham dehqon xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tahlil qilinayotgan yillarda o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, 2020 yil 2000 yilga nisbatan don ishlab chiqarish 52,9 foizga, kartoshka – 196 foizga, sabzavotlar – 192,1 foizga, meva va rezavorlar 4,5 martaga, uzum – 4,1 martaga, poliz mahsulotlari – 3,5 martaga oshgan.

Shuningdek, viloyatda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham o‘shish tendensiyalari kuzatilgan holda, tahlil qilinayotgan yillarga mos ravishda go‘sht – 3,5 martaga, sut – 3,4 martaga, tuxum qariyb 5 martaga, jun ishlab chiqarish – 2,8 martaga, qorako‘l teri ishlab chiqarish esa 5 martaga oshgan.

Dehqon xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish omillari quyidagi rasmda tasniflandi (1-rasm).



1-rasm. Dehqon xo'jaliklarida mahsulotlar yetishtirish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar [7]

Dehqon xo'jaliklari faoliyatini samarali tashkil etishda albatta tabiiy resurslar (yer), mehnat resurslari, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va axborot resurslarining o'zaro birikishi nihoyatda muhim.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, viloyatda dehqon xo'jaliklari soni, salmog'i jihatidan ustun turuvchi tumanlar mavjud. Bu tumanlardan Chiroqchida 49815 ta (umumiy soniga nisbatan 14 foiz), Koson tumanida 43832 ta (12,3 foiz), Qarshi shahrida 43808 ta (12,1 foiz), Yakkabog'da 39935 ta (11,7 foiz), Qamashi tumanida 38200 ta (11 foiz) va Qarshi tumanida 30000 ta (10,2 foiz), Nishon tumanida 20200 ta (9,8 foiz) dehqon xo'jaliklari mavjud bo'lib, ular viloyat iqtisodiyotining muhim va ajralmas bo'laklari sifatida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Demak "barcha turdagi dehqon xo'jaliklarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini samarali ish yuritayotgan dehqon xo'jaliklari darajasiga ko'tarilsa, yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari miqdorini 1,8-2,0 marta ko'tarish imkoniyatlari mavjud" [8].

Dehqon xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqish holatini tahlil qilish natijalari dehqon xo'jaliklarida ekin maydonlari tarkibida ham tarkibiy o'zgarishlar tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, tahlil qilinayotgan yillar davomida donli ekinlar maydoni 8,1 foizga oshgani holda jami ekin maydonlari tarkibida donli ekinlarning ulushi 48,7 foizdan 43,5 foizga kamaygan. Texnik ekinlar esa mos ravishda 74,2 foizga, jami ekin

maydoni tarkibidagi ulushi esa 1,7 foizdan 1,1 foizga kamaygan [9]. Ushbu davrda oziq-ovqat ekinlari keskin ravishda, don ishlab chiqarish 52,9 foizga, kartoshka – 196 foizga, sabzavotlar – 192,1 foizga, meva va rezavorlar 4,5 martaga, uzum – 4,1 martaga, poliz mahsulotlari – 3,5 martaga, oziqbop poliz – 74,8 foizga oshgan. Ammo ozuqa ekinlarini joylashtirish bo‘yicha kamayish tendensiyasi kuzatilgani holda ushbu yillar davomida jami ekin maydoniga nisbatan ozuqa ekinlari 14,0 foizdan 8,5 foizga kamaygan.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Брокгауз Ф.А. ва Ефрон И.А. Энциклопедический словарь. – М., 2001; Стр. 480.
2. Сельскохозяйственный и производственный кооператив: М: Энциклопедия российский деревень, 1999, С.181.
3. Бобок А. Развивать малые формы хозяйствования. // АПК: экономика, управление. – М., 2008, №9. С.36-37.
4. Капанев И.Г., Чубков Г.В. Семейный и личный подряд на селе. – Москва, Юрид. Лит., 1989. – 288 Стр.
5. Ahmedov U.Q. Qishloq joylari uy xo‘jaliklarining rivojlanish istiqbollari (Monografiya) – T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 152 bet. (31-bet).
6. Salimov B.T, Berkinov B.B, Hamdamov Q.S va boshq. Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi. – Toshkent, 2004 y., 14-bet.
7. Husanov R.Q. Qosimov M.CH. Dehqon xo‘jaliklari yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. – T.: “Cho‘lpon”, 2000 y, 104-bet.
8. Samiyeva G.T. Dehqon xo‘jaliklarida mahsulotlar diversifikatsiyasi. MonografiY. – T- “Voriz”, 2020.
9. GT Samieva. Development and features of entrepreneurial activities in the agrarian sector of the republic of Uzbekistan. - ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11 (2), 1279.